

## SHODMONQUL SALOM FALSAFASI

Parda Alimov

*TerDPI O'zbek tili va adabiyoti**kafedrasi professori*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada she'riyatda Surxon kengliklari, dashti qirlari va oddiy odamlarning birovlariga o'xshamas turmush tarzi va quyosh taftini qaytargan Bobotog', yana qandaydir sirli qalb navolarini olib kirgan iste'dodli shoir Shodmonqul Salomning falsafiy qarashlari tahlil etiladi.*

**Kalit so'zlar:**  *ritorika, serjilo, san'at, adabiyot, insoniyat tafakkuri, badiiy didi*

XX asrning so'nggi choragida jahon falsafasi va san'at tarixida universalizm degan tushuncha paydo bo'ldi. Mavjud bo'lgan barcha ilmiy qarash, ijodiy metod, yo'nalish va falsafiy maktablar insonni tasvirlashdagi mavjud imkoniyatlardan, ya'ni "izm"lardan foydalanish davri tugadi. Ko'proq bir xil qarash, bir xil tasavvurlar ko'payib ketdi. Holisona aytganda, tasvirning mo'rtligi va voqelikni qanday tugashi kitobxonga yoqmay qoldi. Keyinroq paydo bo'lgan badiiy oqim va yo'nalishlarga "post", trans singari old qo'shimchalar ishtirokida "transosalizm", "transavangard", "postmodernizm", "poststruktualizm" kabi oqimlar paydo bo'ldi.

Shaxs murakkab xilqat. Bir-biriga mutlaqo har jihatidan tasavvuri va anatomik tuzilish bir biriga o'xshamaydi. Har bir insonning o'z ichki olami va qiyofasi bir-biridan jiddiy farqlanadi. Inson murakkab, mutlaqo chegarasizdir. Ichki ruhiy olamini bilish va o'zlashtirish, oldindan ko'rish hayotiy hodisadir. Inson tuzilishi murakkabligicha qolaveradi. Shunday uchun endilikda badiiy ijod va falsafiy qarashlarda birorta metod yoki usul ustuvor bo'lolmasligi aniqlandi. Hozirda insoniyat tafakkuri va badiiy didi rivojlanishning shunday davrga keldi-ki, badiiy ijod va falsafada birorta nazariya va yo'nalish, tizimlilikni topib olib ommani shunga jalb etish fikrsizlikka olib keladi. Hozirgi texnologiya taraqqiyot davrida yakka fikrga ko'pchilikni da'vat etish nojoiz bo'lib qoldi. Badiiy ijod va falsafadagi jiddiy inqilobiy o'zgarishlar, ko'pchilikka ma'qul bo'lmagan an'anaviy usuldan voz kechish odatiy tusga kirib bormoqda. Bu badiiy tafakkur zaruriyat - yangi va falsafiy oqimlarning kirishi shunchaki tabiiy holat. Ijodda yangilash, tafakkurni mukammallashtirish – har bir davrning muammosidir. Hozirda badiiy ijoddagi yangilash davr talabi va ehtiyoji bo'lib qoldi.

Bugungi kunda tasvirning quyuqligi, originalligi, mukammalligi va tuyg'uni (goh salbiy va ijobiy bo'lsin) ifodalashga intilishda namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, she'riyatda quruq ritorika emas, serjilo tuyg'ular tasviri yuzaga chiqmoqda.

San'at va adabiyot bir necha ming yillik olamni tasvirlash, badiiy idrok etgani tufayli, natija o'laroq keng qirrali va cheksiz bashariy madaniyatni yuzaga keltirdi. San'at va madaniyatda madaniylashish jarayoni insoniyat taraqqiyotidagi omillarini yuzaga keltirdi.

Yuqorida aytganimizdek, insonni badiiy o'zlashtirish murakkab jarayondir. Odamni bilish va ruhiy evrilishlar o'ziga xos olam. Odam tabiatan o'zgaruvchan, uning turg'un ruhiy muvozanati yo'q. Yozuvchi esa insonni turg'un holatini qidiradi, o'zgarimas holatlariga e'tibor qaratadi, yurak taftini, aqliy tasvirini beradi, harakatdagi yorug'likni izlaydi, hammaga ma'lum bo'lmagan sir-asrorlarini tavsiflaydi.

Ya.Parandovskiy bir gapi – "Poeziya shunday bir hayot bosqichida namoyon bo'ladiki, bunda tuyg'ular hali navqiron va beg'ubor bo'ladi, odam hamma narsadan kuchliroq tarzda namoyon bo'ladi, hamma narsa odamning ko'ziga yangi va g'aroyib bo'lib ko'rinadi. Yoshlik sub'ektivlikka, lirikaga moyildir. Yoshlik olamda boshqa shaxslar mavjud ekanini tan olmaydi, olamni o'ziniki deb hisoblaydi, uni o'zining mulki deb biladi va hech kim bilan baham ko'rishni istamaydi."

Hamma odamlarga individual yurak dardini topishga intilish yozuvchida alohida quvvat bag'ishlaydi. Bu yozuvchi uchun zarur bir ilovadir. Shoirlikni mashaqqati shundaki, qandaydir lahzalardan mangu mehrlanadigan onlarni topadi. Ya.Parandovskiy aytishicha, adiblar o'z kasblari uchun qonuniy iftixorni tuyg'usi bilan ijod qilishlari shart. "Yagona chin inson shoirdir", degan edi Shiller. Yozuvchi umuminsoniy ehtiyoj – dardini aytadi, yuragini yumshatadi, tobora bu ehtiyojni ko'paytirib, o'zini qiynagan azob, iztirob, g'amlardan o'zini xolis etadi.

"Men, - deb e'tirof etadi Gyote, - meni quvontirgan, qayg'uga solgan, qiynaydigan narsalarning hammasini obrazlarga aylantirishga, poeziya bag'riga joylashga ko'nikib qolganman. Mening hamma asarlarim bitta katta iqrornomaning bo'laklaridir". Mangu yashaydigan bir umumiy qoida mavjud – muallifning shaxsiy iqrorlari va e'tiroflaridan xoli asarni topish amrimaholdir. Adib o'z asarlari ichida ko'rinmas bo'lib yashaydi. Asardagi voqelikni ma'lum bir qismini boshidan kechirgan va ko'rgan, eshitgan, keyin esa unga badiiy sayqal bergan.

So'z orzu uchun qanotdir. So'zda insonni mukammal tasvirlash uchun noyob imkoniyat bor. Uni uvoliga qolmaslik kerak. So'zning eng ashadiy

dushmani ritorika, shoirbozlik, safsata va balandparvoz gaplardir. Soʻzda shunday ilohiy kuch mavjud boʻlib, toʻgʻri ishlatsa, uni mashhurlikka olib boradi. Yoki aksincha...

“Men butun aql-zakovatimni, jamiki yumor tuygʻularni ishga solib, bu romanda insoniy zaifliklarning ustidan kulmoqchi boʻldim hamda ana shu yoʻl bilan odamlarga ularning qusurlaridan qutulishlariga yordam bermoqchi edim”; deb yozadi Filding, “Tom Jons” muqaddimasida. Bunday gaplar adabiyot ravnaqining hamma davrlarida aytilib kelgan. Shuni taʼkidlash joizki, adabiyot qusurlardan qutulish uchun vosita emas, uning oʻziga estetik funksiyasi bor. Aristotel katarsis nazariyasida insonni adabiyotdan taʼsirlanishini va ruhiy quvvat olishini taʼkidlab oʻtgan.

Yozuv sanʼatiga murojaat qilgan, biror sabab qalam tebratgan insonni yozuvchi deyish oʻrinsiz. Soʻz sanʼatkorining asosiy belgilari quyidagilarda namoyon boʻladi: xayoloti, sheʼriy idroki, oʻtkir zehni, voqelikni saralashdagi yuqori didi, yaratgan bergan noyob isteʼdod hamda igna bilan quduq qazishdek ogʻir sohani qanday egallashi va u ishlatgan badiiy tasvir vositalarning keng va teranligidadir.

Ijodning hech bir turida adabiyotdagidek koʻp qirrali kasb egalarini koʻrmaysiz. Ularning orasida avliyolar, papalar, imperatorlar, qirollar, podshohlar, davlat arboblari, fotihlar, sayyohlar, lashkarlar, olimlar, artistlar bor.

Bunday qarasangiz adabiyotning biografiyasi ancha murakkab. Boʻronli voqealar, janglar, urushlar, bosqinlar, zulmlar va azobli tarixdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Шодмонкул Салом. Юрак иқлими. — Тошкент: “Шарқ”, 2014.
2. Шодмонкул Салом. Кўнги́л китоби. — Тошкент: “Ўзбекистон”, 2012.
3. Шодмонкул Салом. Кўнги́л обидасига йўл. — Тошкент: “Шарқ”, 2016.
4. Шодмонкул Салом. Борлигини билганлар. — Тошкент: “Наврўз”, 2015.
5. Шодмонкул Салом. Шеър сайёраси. — Тошкент: “Ёзувчи”, 2017.
6. Аслонов, Ш. “Шеърятда фалсафа ва Шодмонкул Саломнинг ижодий ўзига хослиги” // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, №12, 2020.
7. Назаров, Б. Ўзбек адабиётида фалсафий тенденциялар. — Тошкент: Фан, 2019.
8. Mardonova Lobar Umaraliyevna. (2024). TARIXIY MANBALARDA AMIR TEMUR OBRAZINING BADIY TALQINLARI. IMRAS, 7(6), 56–60.
9. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. Journal of Law and Sustainable Development, 11(12), e2676.